



Date: 03 June 2026

QARINDOSHLIK TERMINOLOGIYASI VA MILLIY QADRIYATLAR: PAREMALARINING ETNOLINGVISTIK TAHLILI

Ziyoyeva Marjona Anvar qizi
BuxDPI O‘zbek tili va adabiyoti magistranti
marjonaziyoyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalq paremlarida — maqol va matallarda — uchraydigan qarindoshlik nomlarining (ona, ota, aka, opa, quda, kelin va boshq.) etnolingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda leksik-semantik, lingvomadaniy va etnolingvistik metodlardan foydalanilgan. Olingan natijalar o‘zbek xalqining oilaviy qadriyatlari va milliy mentalitetini til orqali aks ettirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: parema, maqol, masal, qarindoshlik nomlari, etnolingvistika, lingvomadaniyat, o‘zbek tili, milliy mentalitet.

KIRISH. Tilshunoslikning etnolingvistika va paremiyologiya kabi tarmoqlari so‘nggi o‘n yilliklarda jadal rivojlanib, xalq og‘zaki ijodining til va madaniyat kesishmasidagi qatlamlarini ochib bermoqda. Xalq maqol va matallarida jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, oilaviy munosabatlar va axloqiy normalar qadimdan mustahkam saqlanib kelgan. Qarindoshlik nomlari — ota, ona, aka, singil, quda, kelin kabi so‘zlar — paremiologik birliklar tarkibida nafaqat leksik, balki chuqur etnik-madaniy ma‘no kasb etadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, o‘zbek paremlarida qarindoshlik nomlarining etnolingvistik tahlili hali yaxlit va tizimli o‘rganilmagan. Mavjud ishlar ko‘proq leksikografik yoki folklorshunoslik nuqtai nazaridan yondashgan bo‘lib, etnolingvistik metodologiya yetarli darajada qo‘llanilmagan.

Etnolingvistika — til va xalq madaniyati, tarixi hamda mentalitetining o‘zaro munosabatini o‘rganuvchi fan sohasi. Paremiya esa — xalq donoligi ifodasi bo‘lgan maqol, masal, topishmoq kabi qisqa, shaklan mustahkam nutq janrlarining umumiy nomidir. O‘zbek tilshunosligida N.Mahmudov, B.Mengliyev, A.Mamatov kabi olimlar paremiologik birliklarni leksik-semantik jihatdan tadqiq qilganlar, biroq etnolingvistik yondashuv hali to‘liq ishlab chiqilmagan. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: (1) komponent tahlili — qarindoshlik leksemalarining semik tarkibini aniqlash; (2) kontekstual tahlil — paremadagi ma‘no-funksional yukini belgilash; (3) lingvomadaniy tahlil — milliy qadriyatlar va til birligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochish. O‘zbek xalq maqollarining keng korpusini tahlil qilish asosida qarindoshlik nomlarini uchta funksional guruhga ajratish mumkin: (a) axloqiy-tarbiyaviy funktsiya, (b) ijtimoiy-normativ funktsiya va (c) tasviriy-



Axloqiy-tarbiyaviy funksiyada “ona” leksemasi eng ko‘p uchraydi: “Onasi yaxshining — o‘zi yaxshi” (Maqol). Bu misolda “ona” so‘zi shunchaki qarindoshlik nomi emas, balki ezgulik, tarbiya va insoniy fazilatlarining timsoliga aylanadi. Mazkur hodisa etnolingvistikada “simvolik nominatsiya” deb ataladi.

Ijtimoiy-normativ funksiyada “kelin” va “qaynona” nomlarining keng qo‘llanishi e’tiborni tortadi: “Kelinni kelganda ko‘r, sepini yoyganda” (Maqol). Bu parem an’anaviy o‘zbek oilasida kelinning ijtimoiy rolini belgilab, unga qo‘yiladigan madaniy talablarni til orqali mustahkamlaydi.

“Aka” va “opa” leksemalarida esa jamoatchilik va birdamlik semantikasi ustuvorlik qiladi: “Aka bor – tog‘bor, singil bor – bog‘ bor” (Maqol). Bu paremada aka — nafaqat biologik qarindosh, balki tayanch va ishonchning belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu kabi qo‘llanish holati etnolingvistlar tomonidan “semantik kengayish” hodisasi sifatida baholanadi.

XULOSA

Amalga oshirilgan tadqiqot quyidagi xulosalarni ilgari surish imkonini beradi: birinchidan, o‘zbek xalq paremlarida qarindoshlik nomlanishi yaxlit bir etnolingvistik tizimni tashkil etadi; ikkinchidan, ushbu nomlar milliy oilaviy qadriyatlar, ijtimoiy normalar va xalq mentalitetining til shaklidagi ifodasidir; uchinchidan, o‘zbek tilinin obrazlilikini, xalq dunyoqarashining paremlar orqali avloddan-avlodga o‘tib kelganligini tasdiqlaydi. Kelgusida ushbu yo‘nalishni turkiy tillar qiyosiy paremiyologiyasi kontekstida davom ettirish, shuningdek, raqamli korpuslar asosida keng ko‘lamli statistik tahlil o‘tkazish ilmiy istiqbol sifatida belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mahmudov N. Til va ma'naviyat. — Toshkent: Ma'naviyat, 2012. — 184 b.
2. Mamatov A. O‘zbek paremiyologiyasi: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Akadernashr, 2016. — 248 b.
3. Qodirov B. O‘zbek matni strukturasi. — Toshkent: Fan, 1985. — 240 b.
4. Hojiyev A. Tilshunoslikka kirish. — Toshkent: O‘qituvchi, 1990. — 320 b.
5. Sharifova S. Qarindoshlik nomlarining o‘zbek tilida semantik xususiyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti. — 2020. — №3. — B. 45–52.

